

# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 3-avgust, № 156 (8779) Shanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# TEMIR YO‘L TRANSPORTI SOHASI XODIMLARIGA

**Hurmatli do‘stlar!**

Avvalo, siz, azizlarni qutlug‘ kasb bayramingiz – Temir yo‘l transporti xodimlari kuni bilan chin qalbimdan muborakbod etib, barchangizga o‘zimning samimiy hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Biz ushbu tizimda mehnat qilayotgan sizlar kabi zahmatkash ishchi va xizmatchilar, quruvchi va muhandislar, mashinist va vagon kuzatuvchilari, soha faxriylarini o‘z ishining chinakam ustalari deb bilamiz va Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyatini, xalqimizning hayot sifatini oshirish yo‘lidagi xizmatlaringizni yuksak qadrlaymiz.

Ushbu quvonchli ayyomda sohada amalga oshirilayotgan yirik loyiha va dasturlarimiz muvaffaqiyatini ta’minlashda sizlarning beqiyos hissangiz borligini minnatdorlik bilan e’tirof etamiz.

Bu haqda gapirganda, joriy yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasini Xorazm viloyati bilan bog‘laydigan Shovot – Qorao‘zak yangi temir yo‘l tarmog‘i hamda Amudaryo orqali o‘tadigan, temir yo‘l va avtomobillar uchun mo‘ljallangan muhtasham ko‘prik foydalanishga topshirilganini ta’kidlash lozim.

O‘tgan davrda 3 ming kilometrdan ziyod temir yo‘llar elektrlashtirildi. Buxoro – Urganch – Xiva hamda Miskin – Nukus temir yo‘l tarmoqlarini elektrlashtirish ishlari esa jadal davom ettirilmoqda.

Shuningdek, azim poytaxtimizdan Samarqand, Buxoro, Qarshi kabi tarixiy shaharlarimizga “Afrosiyob” elektropoyezdlarining qatnovlari soni oshirilmoqda. Kelgusida bu ishlarning davomi sifatida Toshkent – Buxoro – Xiva hamda Toshkent – Chirchiq – Hojikent yo‘nalishlarida ham yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezdlar qatnovini yo‘lga qo‘yamiz.

Bugungi kunda mamlakatimizning xalqaro transport va tranzit salohiyatini yuksaltirish borasida ham yangi ufqlar ochilmoqda. Strategik ahamiyatga ega Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘lini qurish bo‘yicha amaliy ishlar boshlangani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Hozirgi vaqtda hayotimizga tobora chuqur kirib borayotgan raqamli texnologiyalar temir yo‘l transportiga ham faol joriy etilmoqda. Natijada xizmat ko‘rsatish darajasi keskin oshib bormoqda. Ayniqsa, yuklarni yetkazish vaqti sezilarli darajada qisqargani, temir yo‘l uchastkalarining o‘tkazuvchanlik qobiliyati ortgani, yo‘lovchilar oqimi ko‘paygani, operatsion xarajatlar qisqargani, bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish soddalashtirilib, yuk ortish va tushirish ishlari bo‘yicha yengillashtirilgan tartib o‘rnatilganini qayd etish joiz.

**Hurmatli soha xodimlari!**

Hayot va taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada tezlashib borayotgan bugungi kunda zamonning o‘zi barcha sohalar qatori temir yo‘l tizimi oldiga ham o‘ta dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Jumladan, temir yo‘l transportini yanada rivojlantirish, sohada ko‘rsatilayotgan xizmatlar turini ko‘paytirish va ularning sifatini yaxshilash, muhim zamonaviy kommunikatsiya obyektlarini barpo etish bo‘yicha sizlar bilan birgalikda hali juda katta ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

Ishonchim komil, boy bilim va tajribaga ega bo‘lgan temir yo‘l sohasi xodimlari yanada ulkan kuch-g‘ayrat bilan mehnat qilib, mamlakatimizning temir yo‘l transporti sohasidagi salohiyatini oshirishga munosib hissa qo‘shadilar.

O‘z navbatida soha rivoji uchun yanada qulay sharoitlarni yaratish, sizlarning sharafli va mashaqqatli mehnatingizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e’tibor markazida bo‘ladi.

Siz, azizlarni bugungi bayram bilan yana bir bor tabriklab, kelgusi faoliyatingizda yangi yutuq va omadlar, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, baxtu saodat tilayman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# SHARAFLI VA MASHAQQATLI MEHNAT E’TIROFI

*Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2017-yildan buyon avgust oyining birinchi yakshanbasi mamlakatimizda O‘zbekiston temir yo‘l transporti xodimlari kuni sifatida keng nishonlanib kelinmoqda.*

## Shukuh

Ushbu an’anaga muvofiq poytaxtimizdagi Temiryo‘lchilar madaniyat saroyida soha xodimlarining kasb bayramiga bag‘ishlangan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.

Faxriy temiryo‘lchilar, muhandislar, sohaga endigina kirib kelayotgan yoshlarni jam qilgan ushbu anjuman o‘z shukuhi bilan tizim vakillarida katta taassurot qoldirdi, desak, ayni haqiqat.

Darvoqe, joriy yil nishonlanayotgan O‘zbekiston temir yo‘l transporti xodimlari kuni mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi hamda “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilganining 30 yilligiga to‘g‘ri kelayotganida ham katta ma’no bor. Zero, temiryo‘lchilarning bu yilgi kasb bayrami sohada katta o‘zgarishlar davri bilan bevosita bog‘liqdir.

Tantanali tadbir avvalida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakat temir yo‘l transporti xodimlariga yo‘llagan bayram tabrigini Prezident Matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi.

Qutlovda temir yo‘l sohasidagi islohotlarning samaralari alohida qayd etildi. Jumladan, joriy yilda Qoraqalpog‘istonni Xorazm viloyati bilan bog‘laydigan yangi temir yo‘l hamda Amudaryo orqali muhtasham ko‘prik foydalanishga topshirildi. Temir yo‘llarni elektrlashtirish, yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezdlarni ko‘paytirish ishlari jadal davom ettirilmoqda.

Mamlakatimizning xalqaro transport va tranzit salohiyatini yuksaltirish borasida ham yangi ufqlar ochilmoqda – strategik ahamiyatga ega Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘lini qurish bo‘yicha amaliy ishlar boshlandi.

Shuningdek, tadbirda Bosh vazir o‘rinbosari O. Ramatov, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi Z. Narzullayev temiryo‘lchilarni bayram bilan tabriklab, soha vakillari oldidagi vazifalar hamda istiqbolli loyihalar haqida so‘z yuritdi.

Aytish joizki, o‘tgan yillar davomida temiryo‘lchilarimiz tomonidan 2 297 kilometrdan ortiq temir yo‘llar qurildi. 4961,3 kilometr temir yo‘llar rekonstruksiya qilindi. 3 ming kilometrdan ziyod temir yo‘llar elektrlashtirildi. Buxoro – Urganch – Xiva hamda Miskin – Nukus temir yo‘l tarmoqlarini elektrlashtirish ishlari jadal davom ettirilmoqda. Ushbu yo‘nalishning elektrlashtirilishi yaqin muddatlarda Toshkent – Samarqand – Navoiy – Buxoro – Urganch – Xiva yo‘nalishida tezyurar hamda yuqori tezlikda harakatlanuvchi ekologik xavfsiz elektropoyezdlar qatnovini yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, bu yo‘l uchun ketadigan vaqt, yonilg‘i va boshqa xarajatlarning ham tejalishiga zamin yaratadi. Qolaversa, atrof-muhit ekologiyasiga ham salbiy ta’sirni kamaytiradi.



Rustam NAZARMATOV olgan surat.

Toshkent – Samarqand – Toshkent yo‘nalishi bo‘ylab yuqori tezlikda harakatlanadigan “Afrosiyob” elektropoyezdlari qatnovi yo‘lga qo‘yilganini xalqimiz katta mamnuniyat bilan qabul qildi.

➔ 2

# YOSHLAR PARLAMENTI VAZIRLIKLAR BILAN MEMORANDUM IMZOLAYDI

*Senatning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan qator vazirliklarda o‘rganishlar olib borildi. Xususan, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar, Maktabgacha va maktab ta’limi hamda Sport vazirliklarining Yoshlar parlamenti bilan hamkorlikdagi faoliyati joyiga chiqib o‘rganildi. Jarayonda senatorlar, Yoshlar parlamenti a’zolari hamda ekspertlar qatnashdi.*

## O‘rganish

Ta’kidlanganidek, Oliy Majlis Senati Kengashining tegishli qarori bilan Senat huzuridagi Yoshlar parlamentining barcha a’zosi 25 ta vazirlik va idoraga biriktirilib, o‘zaro hamkorlikdagi asosiy ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Yoshlar bilan ishlash, navqiron xodimlarga yaratilgan shart-sharoitlarni o‘rganish, yoshlarga oid qonunchilik ijrosi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borish, shuningdek, yosh avlod bilan ishlash bo‘yicha qisqa, o‘rta va uzoq muddatli strategiyalarni belgilab olish hamda ularni amalga oshirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarni (“Yo‘l xaritasi”) ishlab chiqish shular jumlasidan.

➔ 2

# QISHLOQ XO‘JALIGI RIVOJI – OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI GAROVI

*Senatning Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi tomonidan “Yuksalish” umummilliy harakati bilan birgalikda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga oid masalalar ijrosi yuzasidan davra suhbati o‘tkazildi.*

## Davra suhbati

Unda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining doimiy komissiyalari vakillari, ekspertlar, Yoshlar parlamenti a’zolari, tegishli vazirlik va idoralar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Ta’kidlanganidek, dastur ijrosi yuzasidan I yarim yillikda qishloq xo‘jaligi sohasida 450 mlrd. so‘mlik 61 ta loyihani foydalanishga topshirish hisobiga mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilgan, shuningdek, 43,5 trln. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

➔ 2



# YANGI O‘ZBEKISTONNING ZAFARLARI –

## MUSTAQIL TARAQQIYOT G‘OYASIGA HAMISHA SODIQ, MARD VA MATONATLI XALQIMIZNING BUYUK SALOHIYATI MAHSULI

***“Bundan o‘ttiz uch yil oldin o‘ta og‘ir va murakkab tarixiy vaziyatda qo‘lga kiritilgan milliy istiqlolimiz bugungi kunda ko‘p millatli butun xalqimizni Yangi O‘zbekistonni barpo etishdek buyuk maqsad yo‘lida birlashtirib, yangi yutuq va marralar sari ilhomlantirmoqda”.***

***Ushbu hayotiy fikrlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning shu yil 18-iyulda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida ta’kidlangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal SAIDOV bilan muxbirimiz ayni shu qarorning mohiyati va ahamiyati haqida suhbatlashdi.***

## Istiqlol va istiqbol

**Mustaqillik nima?**

– Davlatimiz rahbarining qarori muqaddimasida keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar jarayonida mustaqil davlat bo‘lib, dunyoga ochilib yashash, erkin va ozod xalqlar oilasida munosib o‘rin egallab, zamonaviy taraqqiyotga erishish naqadar ulug‘ baxt va sharaf, shu bilan birga, ulkan mas’uliyat ekanini yanada chuqur his etayotganligimiz alohida e’tirof etilgani bejiz emas, – deydi A.Saidov. – Chunki dunyoning umumiy siyosiy-ijtimoiy jarayonlari nuqtayi nazaridan qaraganda, bundan roppa-rosa 33 yil oldin O‘zbekistonning tinch parlament yo‘li bilan davlat mustaqilligiga erishishi tarixiy muqarrar hodisadir.

Shuning uchun ham 1991-yil 1-sentabrdan boshlab jahon siyosiy xaritasida yangi mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasining paydo bo‘lishi tasodif yoki favqulodda bir voqelik hisoblanmaydi. Aksincha, ushbu olamshumul voqea ona zaminimizda asrlar osha o‘zbek xalqi hamda shu zaminda yashab va mehnat qilib kelayotgan mamlakatimiz xalqlarining asriy orzusi ro‘yobga chiqishi, olib borilgan mashaqqatli, aksariyat hollarda fojiali kurashining munosib mahsulidir.

➔ 3

## YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

# Alisher Yusupov – Olimpiya o‘yinlari bronza medali sohibi



*Parij Olimpiya o‘yinlarining navbatdagi kun musobaqalari O‘zbekiston delegatsiyasi uchun muvaffaqiyatli o‘tdi. Gap shundaki, dzyudo bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoa a’zosi Alisher Yusupov (+100 kg.) bronza medalni qo‘lga kiritib, yurtimiz sport muxlislarini xushnud qildi.*

Dzyudochimiz dastlab nimchorak final bosqichida slovakiyalik Marius Fizelga qarshi bahs olib borib, uni ippon bahosi evaziga mag‘lub etdi. Chorak final doirasida esa tojikistonlik Temur Rahimovga qarshi tatamiga chiqdi. Afsuski, hamyurtimiz “golden score” (qo‘shimcha vaqt)da imkoniyatni boy berib qo‘ydi.

Shundan so‘ng A. Yusupov to‘g‘ridan-to‘g‘ri bronza medal uchun kurashadigan bo‘ldi. Sababi uning o‘tish bosqichidagi raqibi, gruziyalik Guram Tutashvili musobaqadan chetlatildi.

Bronza uchun kechgan muhim bahsda dzyudochimiz yaponiyalik Tatsuru Saitoga qarshi ippon usulini qo‘lladi va Parij Olimpiya o‘yinlarining bronza medalini qo‘lga kiritdi.

Mazkur medal dzyudo bahslaridagi uchinchi sovrin bo‘ldi. Bungacha Diyora Keldiyorova (-52 kg.) oltin va Muzaffarbek To‘raboyev (-100 kg.) bronza medali bilan taqdirlangan edi.



Anvar ILYASOV olgan suratlar.

Kecha, shuningdek, bokschimiz Bahodir Jalolov (+92 kg) Parij Olimpiya bahslari doirasida o‘zining chorak final jangini o‘tkazdi. U bu safar avstraliyalik T. Teremoanaga qarshi ringga ko‘tarildi va hakamlar qarori bilan 5:0 hisobida g‘alaba qozondi. Endi Bahodir yarimfinalda germaniyalik Raman Nelvi Tiafakka qarshi jang olib boradi.

# Urganch xalqaro aeroporti o‘z faoliyatini tiklaydi




*Urganch xalqaro aeroporti shu yil 5-avgust kuni Toshkent vaqti bilan soat 11:00 dan boshlab o‘z faoliyatini tiklaydi.*

“Uzbekistan Airports” AJ matbuot xizmati xabariga ko‘ra qurilish-ta’mirlash ishlari belgilangan muddatdan avvalroq yakunlanib, shu vaqt davomida katta hajmdagi ishlar amalga oshirilgan.

Jumladan, uzunligi 3000 metr va eni 45 metr bo‘lgan uchish-qo‘nish yo‘lagi qoplamasi almashtirilib, yanada mustahkamlandi. Ikkinchi va uchinchi yurish yo‘laklari kapital ta’mirdan chiqarildi. Bu aeroportga “Boeing-787” va “Airbus-A330” kabi keng fyuzelyajli samolyotlarni cheklovlarsiz qabul qilish hamda Urganch shahriga reyslar soni va yo‘lovchilar oqimini ko‘paytirish imkonini beradi.

# “Qardoshlik mushoirasi”

*Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan mamlakatimiz bo‘ylab o‘tkazilayotgan “Do‘stlik” festivali doirasida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida “Qardoshlik mushoirasi” nomli ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.*

Unda O‘zbekistonda yashab ijod qilayotgan qozoq, tojik, rus yozuvchi va shoirlarining o‘zbek tiliga tarjima qilingan kitoblari, shuningdek, uyushma a’zolari tomonidan ona tilimizga o‘girilgan jahon adabiyotining sara asarlari ko‘rgazmasi ham namoyish qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# BOLALAR HUQUQIY HIMOYASI KUCHAYTIRILADI



*Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun muhokama qilindi.*

## Senat qo‘mitasida

Majlisda senatorlar, vazirlik va idoralar vakillari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi a’zolari, yoshlar, OAV xodimlari qatnashdi.

Jahon bankining tavsiyasi asosida bolalar va xotin-qizlarning tazyiq va zo‘ravonlikka uchrashining oldini olish choralari samaradorligini oshirish, oilalardagi ma’naviy-axloqiy muhit yaxshilanishini ta’minlash uchun mazkur qonun ishlab chiqildi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra tazyiq va zo‘ravonlik oqibatida o‘lim kelib chiqqan hollarning 38 foizida ayolning turmush o‘rtog‘i yoki u bilan birga ro‘zg‘or qurib yashayotgan shaxsning aybi bo‘ladi.

Amaldagi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi hamda Jinoyat kodekslarining tegishli moddalari dispozitsiyasida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikning qurboni er-xotin, sobiq er-xotin, bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxs yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxslar bo‘lishi mumkinligi nazarda tutilgan, ammo bolalar kiritilmagan. Natijada oilaviy zo‘ravonlikka uchragan bolalarga nisbatan jinoyat ishlarini malakalashda tergov idoralarida turli muammolar yuzaga kelgan.

Mazkur qonun bilan bolalarni himoya qilishning huquqiy asosi mustahkamlanib, bolaga, vasiylik yoxud homiylik ostida bo‘lgan voyaga yetmagan shaxsga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik qilganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmoqda.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning $59^{2}$-moddasi va Jinoyat kodeksining $126^{1}$-moddasini bolaga nisbatan oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi norma bilan to‘ldirilgan.

Jinoyat-protsessual kodeksining 583-moddasiga o‘zgartirish kiritilib, yarashtiruv instituti bilan bog‘liq norma aks ettirilgan. Yarashtiruv instituti amaliyotda mavjud bo‘lib, turli holatlarda sudgacha tomonlar o‘zaro yarashtiriladi. Ammo bu qonun bilan oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik bo‘lsa, sudgacha hech qanday yarashtiruv mumkin emasligi belgilanmoqda. Chunki tergov bosqichida er-xotinlarning o‘zaro yarashgani oqibatida ayblanuvchi tomon jazo muqarrarligini his etmay, bir yil davomida yana qayta zo‘ravonlik sodir etishi holatlari kuzatilmoqda.

Shuning uchun ham yarashuv to‘g‘risidagi ariza faqat sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirishidan oldin, ya’ni oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik sodir etgan shaxs faqat sudda yarashuv to‘g‘risida ariza berish huquqiga ega bo‘lishi belgilanmoqda.

Mazkur Qonunning qabul qilinishi oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyat ishlarining har tomonlama, to‘liq va xolisona ko‘rib chiqilishiga, tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning xulqiga ko‘rsatiladigan ijobiy ta’sirning kuchi yanada ortishiga, bolalar va xotin-qizlarning tazyiq hamda zo‘ravonlikka uchrashining oldini olish choralari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**“Xalq so‘zi”.**

# YOSHLAR PARLAMENTI VAZIRLIKLAR BILAN MEMORANDUM IMZOLAYDI

←1 Shundan kelib chiqib, vazirliklar mas’ullarining mazkur yo‘nalishlarda olib borilgan hamkorlikdagi faoliyati yuzasidan axboroti eshitildi.

Ijrosi kechiktirilayotgan ayrim vazifalar bo‘yicha tegishli tavsiyalar berildi. Jumladan, vazirliklarning Yoshlar parlamenti bilan hamkorlikdagi manzilli chora-tadbirlarini ishlab chiqish va tez orada tasdiqlash lozimligi ta’kidlandi.

Shuningdek, vazirliklarda ishlayotgan yosh xodimlarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishildi, ular bilan suhbat tashkil etilib, fikrlari eshitildi.

O‘rganish davomida vazirliklar va Yoshlar parlamentining hamkorlikdagi loyihalariga ham e’tibor qaratildi. Bu borada har ikki tarafning taklif-mulohazalari eshitildi hamda istiqbolda hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan loyiha va tanlovlar muhokama etildi.

Bundan tashqari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar, Maktabgacha va maktab ta’limi hamda Sport vazirliklari bilan Yoshlar parlamenti o‘rtasida hamkorlik memorandumini imzolashga kelishib olindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# QISHLOQ XO‘JALIGI RIVOJI – OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI GAROVI

←1 Joriy yilda 1,4 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan o‘sish sur’ati 151 foizga yetkazilgan.

Mamlakatimizda mavjud “In-vitro” laboratoriyalari tomonidan jami 4 milliondan ortiq sertifikatlangan ko‘chat mahsuloti yetishtiruvchilarga yetkazib berilib, 50 ming gektar maydonda intensiv usulda sabzavotlar ekilishi ta’minlangan.

Bundan tashqari, mahalliy meva-sabzavot mahsulotlari eksporti salohiyatini oshirish, eksport qiluvchi mahalliy eksportchi korxonalarga amaliy yordam berish maqsadida O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan respublikaning 14 ta hududida “Eksport shtabi” tashkil etilib, soha mutaxassislari mas’ul qilindi.

Xususiy sektor bilan hamkorlikda 13 ta o‘simliklar klinikasi, 479 ta xizmat ko‘rsatuvchi otryad tashkil etildi, shuningdek, 639 ta biolaboratoriyaga aholi xonadonlarini biriktirish hisobiga 2 mingga yaqin ish o‘rinlari yaratildi.

Ta’kidlanganidek, bu yo‘nalishda belgilangan vazifalarning hududlardagi ijrosi yuzasidan jamoatchilik nazorati, xususan, parlament nazorati o‘rnatilgani joylarda mutasaddilarning mas’uliyatini oshirmoqda.

Suv tanqisligining oldini olish, suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish borasida dasturda belgilangan vazifalarning muhimligi ham senatorlar tomonidan ta’kidlandi. Davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan muhokama ochiq savol-javob shaklida bo‘lib o‘tdi. Shu bilan birga, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan fikr almashildi.

Tadbir yakunida agrar sohani rivojlantirish bo‘yicha kelgusida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan tegishli vazirlik va idoralarga tavsiyalar berildi.

**“Xalq so‘zi”.**

# SHARAFLI VA MASHAQQATLI MEHNAT E’TIROFI

←1 Bu hali hammasi emas. Prezidentimiz tashabbusi bilan soha xodimlari tomonidan Toshkent yer usti metropoliteniga asos solindi. Bugungi kunda umumiy uzunligi 23,7 km. bo‘lgan, 14 ta bekatdan iborat Toshkent shahrida yer usti halqa metro liniyasi poytaxt aholisi va mehmonlarga sifatli xizmat ko‘rsatayotir.

Tadbirda alohida urg‘u berilganidek, davlatimiz rahbarining 2023-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori tizim rivojini ta’minlashda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur qaror ijrosi doirasida temir yo‘l transporti sohasini isloh qilish, sog‘lom raqobat muhitini yaratish, sohaga xususiy sektorni keng jalb qilish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish hamda respublikaning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida o‘tgan yilning so‘nggi oylarida sohada tub islohotlar amalga oshirildi.

Xususan, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibidagi korxonalar negizida alohida yo‘nalishlar bo‘yicha “Temiryo‘linfratuzilma”, “Temiryo‘lkargo”, “Temiryo‘lekspress”, “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa tashkilotlar tashkil etildi.

Qolaversa, bolalar oromgohlari, sog‘liqni saqlash, madaniy-ma’rifiy va sport obyektlarini saqlash, aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlardan tushadigan tushumlarni oshirish hamda ularni bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirishga o‘tkazish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish bo‘yicha “Temir yo‘l ijtimoiy xizmatlar” muassasasi tashkil etilib, faoliyatini davom ettirmoqda.

Shuni ham e’tirof etish kerakki, tizim fidoyilarining sa’y-harakati tufayli yuk hamda yo‘lovchi tashishda ham xavfsizlik to‘liq ta’minlanib, barqaror faoliyat kuzatilyapti. Amalga oshirilayotgan ishlarda soha xodimlarining zalvarli mehnati borligi alohida qayd etildi.

Bilamizki, bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan chegaralanib bo‘lmaydi.

Shu ma’noda, Prezidentimiz soha xodimlariga yo‘llagan bayram tabrigida bu masalalarga ham alohida urg‘u berildi. Jumladan, hayot va taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada tezlashib borayotgan bugungi kunda zamonning o‘zi barcha sohalar qatori temir yo‘l tizimi oldiga ham o‘ta dolzarb vazifalarni qo‘yayotgani, temir yo‘l transportini yanada rivojlantirish, sohada ko‘rsatilayotgan xizmatlar turini ko‘paytirish va ularning sifatini yaxshilash, muhim zamonaviy kommunikatsiya obyektlarini barpo etish bo‘yicha hali juda katta ishlarni amalga oshirish zarurligi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari boy bilim va tajribaga ega bo‘lgan temir yo‘l sohasi xodimlari yanada ulkan kuch-g‘ayrat bilan mehnat qilib, mamlakatimizning temir yo‘l transporti sohasidagi salohiyatini oshirishga munosib hissa qo‘shishiga ishonch bildirdi.

Tantanali tadbirda sohada ko‘p yillar davomida samarali mehnat qilgan xodimlar taqdirlandi. So‘zga chiqqanlar temir yo‘l rivoji yo‘lida ko‘rsatilayotgan e’tibor hamda g‘amxo‘rlik uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Tadbirda san’at ustalari va ijrochi yoshlar ishtirokidagi katta konsert dasturi namoyish etildi.

**Rahim ShERQULOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# TASHABBUSLI BUDJET: KAMCHILIKLAR TO‘G‘RILANADI

*Kuni kecha Oliy Majlis Senati Kengashining qarori bilan “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, majburiy ovoz to‘plashga jalb qilish holatlarini bartaraf etish bo‘yicha jiddiy choralar ko‘rilishi belgilandi. Jumladan, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ovoz berish jarayonlarida budjet tashkiloti xodimlarini majburiy ovoz berishga jalb etish holatlarini qayd etish uchun “qaynoq liniya” qisqa raqamini ishga tushiradi.*

## Mushohada

Shuningdek, bundan keyin “Ochiq budjet” portalida loyihalar ijrosi bo‘yicha o‘tkazilgan monitoring natijalari e’lon qilib boriladi. Har oy chorak yakuni bo‘yicha tamomlangan va foydalanishga topshirilgan loyihalar bo‘yicha tejalgan mablag‘lar (kafolat summasi bundan mustasno) avtomatik tarzda Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi orqali tegishli tuman yoki shahar jamg‘armasiga yuboriladi.

Nizomda bosqichlarning davomiyligiga vakolatli organ tomonidan har bir mavsumning o‘ziga xosligi hamda texnologik shartlarni inobatga olgan holda o‘zgartirish kiritilishi mumkinligi belgilanmoqda.

Amalda har fuqaro bir mavsumda faqat bitta loyihani ilgari surish huquqiga ega. Endilikda esa barcha mahalla uchun g‘olib bo‘lish imkoniyatini yaratish maqsadida tashabbusli budjet doirasida so‘nggi mavsumlarda ketma-ket ikki marotaba g‘olib deb topilgan mahallalar (tashkilotlar) uchun navbatdagi ikkita mavsum doirasida loyiha kiritish imkoniyati cheklanadi.

Shu bilan bir qatorda, ovoz berish jarayoni davomida fuqarolar tomonidan loyihalarga majburiy ovoz to‘plashga jalb etilishi yuzasidan shikoyatlar kelib tushsa, vakolatli organ tomonidan mazkur holatga aniqlik kiritish yuzasidan tegishli tuman yoki shahar xalq deputatlari Kengashiga taqdimnoma yuborilishi, agar holat o‘z tasdig‘ini topsa, majburiy ovoz to‘plangan loyihalarni ovoz berish bosqichidan chetlatish yoki g‘oliblar ro‘yxatidan chiqarish vakolatini beruvchi qo‘shimcha norma kiritilmoqda.

Loyiha g‘olib topilganidan so‘ng Kengash tomonidan majburiy ravishda ovoz to‘plagan deb hisoblanib rad etilsa, unga ajratilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar doirasida keyingi o‘rindagi loyiha g‘olib deb e’lon qilinadigan bo‘ldi.

Shuningdek, Nizom bilan jamoatchilik nazorati doirasida fuqarolar loyihalar ijrosini kuzatib borish orqali qonunbuzilish holatlari yoki kamchiliklar kuzatilganida shikoyat tarzida portal orqali “Favqulodda xabar” qoldirishi mumkin. Ushbu xabar portalda tegishli hudud sahifasida muammoli holat sifatida aks ettiriladi va tashabbuskor tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan vajlarga aniqlik kiritilib, xabarda ko‘rsatilgan holat bartaraf etilmagunga qadar portalda nazoratdan olinmasligi ham belgilanayotir.

To‘liq yakunlangan loyihalar tashabbuskorlar, mahalla raisi va faollarining ish sifati yuzasidan roziligi olinganidan keyingina foydalanishga topshiriladi.

“Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga kiritilayotgan ushbu o‘zgartirish va qo‘shimchalar, avvalo, aholi farovonligini ta’minlash va hududdagi masalalarni hal etishda ularning rolini yanada oshirish, budjet mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirish hamda tashabbusli budjet jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadlariga xizmat qiladi.

**Qobul TURSUNOV,**
**Oliy Majlis Senatining Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.**

# OVCHILIK XO‘JALIKLARINI TASHKIL ETISHDAGI QOIDALAR TAKOMILLASHTIRILADI

*Ma’lumotlarga ko‘ra yurtimizda bugungi kunda umumiy maydoni qariyb 500 ming gektarni tashkil etadigan o‘nga yaqin davlat o‘rmon-ov xo‘jaliklari hamda qariyb ellikta nodavlat notijorat ovchilik hamda baliqchilik xo‘jaliklari faoliyat olib bormoqda.*

## Munosabat

Shuningdek, O‘zbekiston ovchi va baliqchilar sport birlashmasida ro‘yxatga olingan minglab havaskor ovchilar va baliqchilar mavjud. Ular tomonidan ov xo‘jaliklarida turli hayvon turlari (sut emizuvchilar, qushlar) ovlanadi. O‘zbekiston ovchi va baliqchilar sport birlashmasi tomonidan ov hayvonlari go‘sht mahsulotlari yetishtirilgan. Bu esa aholining go‘sht mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qoplashga xizmat qilayotir.

Prezidentimizning shu yil 23-iyuldagi “Respublikada ov qilish va ovchilik xo‘jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bu yo‘nalishdagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘lib, ov qilish va ovchilik xo‘jaliklari faoliyatini xalqaro hujjatlarga mos ravishda tabiatni muhofaza qilish tartib-taomillariga integratsiyalashning huquqiy asoslarini belgilab bermoqda.

Mazkur hujjat bilan joriy yildan boshlab ovchilik xo‘jaligini tashkil etishda yangi tartib o‘rnatilmoqda. Unga asosan ov qilish faqat ovchilik xo‘jaliklari hududida amalga oshirilishi va ovchilik xo‘jaliklari hududidan tashqarida ov qilish taqiqlanishi belgilandi.

Shu bilan birga, ovchilik xo‘jaliklarini tashkil etish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar hamda o‘rmon fondi yerlaridan 10 gektargacha yer uchastkasi ovchilik bazalari va 100 gektargacha yer uchastkasi pitomniklar barpo etish uchun bitta lot sifatida investitsiya va shartnomaviy majburiyatlarni belgilagan holda yuridik va jismoniy shaxslarga elektron onlayn-auksion orqali 49 yil muddatga turli bosqichlarda ijara huquqi asosida ajratish tartibi belgilanmoqda. Bunda ikki yil muddat ichida yovvoyi hayvonlarni yetishtirish va takror ko‘paytirish bo‘yicha pitomniklar infratuzilmasi yoki takror ko‘paytirish uchastkasi tashkil qilinmasa, ijara shartnomasi bekor qilinadi.

Ovchilik hududlaridagi biologik resurslardan samarali foydalanishda mazkur xo‘jaliklarning tutash hududlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda elektron onlayn-auksion g‘olibi bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga ovchilik xo‘jaliklariga tutash hududdagi ov qilish joylari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuziladigan ov qilish joylarini berish to‘g‘risidagi shartnomaga asosan ovchilik xo‘jaligini yuritish uchun biriktirib beriladi.

Ayonki, mamlakatimizning geografik joylashuvi, ov hududlarining yetarliligi xorijiy turistlarni ham jalb etadi. Bu borada hujjatda xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish, ichki turizmni yanada jadallashtirish, yovvoyi hayvonlarni ko‘paytirish joylarini, kichik safari parklar va ov turizmini tashkil qilgan ovchilik xo‘jaliklariga bir qator imtiyozlar berish ham nazarda tutilgan.

Yangi tartibga muvofiq ovchilarga ovchilik yo‘llanmasi yovvoyi hayvonlarni tutishga doir kvotalar asosida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan elektron dastur orqali berilishi, bunda ovchilik yo‘llanmalari berilganligi uchun to‘lov miqdori ovchilik xo‘jaliklari tomonidan belgilanishi ko‘rsatib o‘tilmoqda.

Shuningdek, Farmon bilan ovchilik guvohnomasini berishning tartibiga ham o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Yangi tartibga ko‘ra ovchilik guvohnomasini olish uchun talabgorlar maxsus o‘quv kurslarida o‘qitiladi.

Ushbu tarixiy hujjat ov hayvonlaridan oqilona foydalanish orqali atrof-muhit muhofazasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xalqaro hujjatlar doirasida olingan majburiyatlar ijrosi bo‘yicha yovvoyi hayvonlarni qayta ko‘paytirish hamda genofondini saqlab qolish mexanizmlarini takomillashtirish, ov turizmining rivojlanishi va ov xo‘jaliklari iqtisodiy holatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

**Islom XUSHVAQTOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

## Qonunchilik palatasi qo‘mitalarida

# OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “SPIN-OFF” KORXONALARIGA EHTIYOJ BOR



*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi hamda Senatning Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi hamkorligida yig‘ilish o‘tkazildi.*

Yig‘ilishda oliy ta’lim muassasalari va ularning qoshidagi tajriba ishlab chiqarish korxonalari “spin-off”ga tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilish va sotish uchun shartnomalar tuzish, mablag‘ o‘tkazish va ularni ishlatish bo‘yicha amaldagi qonunlarni keskin yengillashtirishni ta’minlash to‘g‘risidagi masala muhokama qilindi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida “spin-off” (Spin-off) korxonalarini tashkil etishda amaldagi qonunlarni keskin yengillatishni ta’minlash borasida aloqador vazirlik va idoralarning amaldagi qonunchilik hujjatlarining inventarizatsiya holati yuzasidan olib borilgan ishlar yuzasidan axboroti eshitildi.

Ta’kidlanganidek, amaldagi qonun hujjatlarida “spin-off” tushunchasiga ta’rif berilmagan bo‘lsa-da, ushbu tushuncha qonunosti hujjatlarida, xususan, davlatimiz rahbarining qator qarorlarida qo‘llanilgan.

Shu bilan birga, Prezidentimizning tegishli Farmoniga muvofiq 2021-yil 1-maydan boshlab ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar hamda ularga ustav fondi (ustav kapitali)ning 50 foizi va undan ortig‘i tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar xaridlariga oid moliyaviy ma’lumotlarni OAV va internet jahon axborot tarmog‘ida e’lon qilish amaliyoti joriy etilgan.

Amalga oshirilayotgan ishlarga qaramay oliy ta’lim muassasalarida “spin-off” korxonalarini tashkil etish yuzasidan ayrim muammolar uchrab turibdi. Jumladan, ularga investitsiya jalb qilishning jozibador yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan “spin-off” korxonalarini tashkil etish tajribasi, me’yoriy-huquqiy bazasi mavjud emas. Bu esa ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ishlab chiqarishga transferini amalga oshirishga qaratilgan “spin-off” korxonalarini ochishda qiyinchiliklarga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalari qoshida tashkil etiladigan “spin-off” korxonalariga xususiy kapitalni jalb etish amaliyoti samarali hisoblansa-da, hozirgi paytda tadbirkorlik subyektlari uchun investitsion jozibadorlik yo‘q.

Munozaralar davomida deputatlar ushbu masalalarga alohida e’tibor qaratib, oliy ta’lim muassasalarida “spin-off” korxonalarini tashkil etish bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Xususan, amaldagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunda “spin-off” (Spin-off) tushunchasiga alohida ta’rif berish, shuningdek, oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot institutlari ishtirokida tashkil etiladigan “spin-off” korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha me’yoriy-huquqiy asosini ishlab chiqish va ularning tashkiliy-huquqiy shaklini aniq belgilash lozimligi qayd etildi.

Shu bilan birga, davlat oliy ta’lim muassasalari qoshida faoliyati yo‘lga qo‘yilgan “spin-off” (unitar) korxonalarini tugatish amaliyotini bekor qilish, innovatsion korxonalarning “spin-off” davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishida oliy ta’lim muassasalari yoki ilmiy-tadqiqot institutlari ta’sischi sifatida kamida 20 foizdan kam bo‘lmagan ulush bilan qatnashish tartibini qat’iy belgilash bo‘yicha qator taklif va tavsiyalar berildi.

Yig‘ilish yakunida mazkur masala yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

# RO‘YXATGA KIRITILMAGAN BARCHA TEKSHIRUVLAR BIZNES-OMBUDSMAN BILAN KELISHILADI

*Ayni paytda Budjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonun loyihasi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisiga ikkinchi o‘qishda kiritish uchun tayyorlanmoqda.*

Tadbirkorlik kodeksi loyihasiga 8 ta qonun va 20 dan ortiq qonunosti hujjatlarini unifikatsiya qilish orqali tadbirkorlik sohasidagi munosabatlarni yagona hujjat bilan tartibga solish, davlatning tadbirkorlik sohasiga aralashuvini kamaytirish, shuningdek, tadbirkorlik huquqi sohasida yagona yondashuvni belgilash nazarda tutilyapti.

Shuningdek, loyiha bilan tadbirkorlik faoliyatining qonuniylik, tadbirkorlik erkinligi, subyektlar tengligi, halol raqobat, vijdonlilik prezumpsiyasi, korrupsiyadan xolilik kabi asosiy prinsiplari ham mustahkamlanyapti. Tadbirkorlik subyektlari esa kichik, o‘rta va yirik toifalarga ajratilmoqda.

Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning chegaralari va tartibga solish shakllari ham hujjat loyihasida o‘z aksini topmoqda. Qolaversa, 39 ta davlat organining 147 ta nazorat funksiyasi va Biznes-ombudsmanni xabardor etish tartibida o‘tkaziladigan 17 turdagi tekshiruvlar ro‘yxatlari mazkur kodeksga ilova sifatida tasdiqlanib, ro‘yxatga kiritilmagan barcha tekshiruvlar Biznes-ombudsman bilan kelishilgan tartibda amalga oshirilishi taklif etilmoqda.

– Mazkur qonun loyihasi Qonunchilik palatasining shu yil 16-iyul kuni bo‘lib o‘tgan majlisida birinchi o‘qishda ko‘rib chiqilib, konseptual jihatdan birinchi o‘qishda qabul qilingan edi, – deydi quyi palata deputati Abdig‘ani Umirov. – Ayni paytda qo‘mitamiz tomonidan berilgan takliflar asosida loyihani yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo‘yicha ish olib boryapmiz. Ushbu hujjat bilan jismoniy va yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va undan manfaatdor bo‘lishi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratiladi. Eng muhimi, xususiy mulk, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinadi.

Mas’ul qo‘mitada qonun loyihasini takomillashtirish ishlari davom etmoqda.

# YER QA’RIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI BELGILANMOQDA

*Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasi tomonidan “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi.*

Ushbu qonun loyihasi bilan sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi normalar nazarda tutilyapti. Shu asosda loyihada foydali qazilmalarning tasnifi yanada aniqlashtirilmoqda.

Shuningdek, yer qa’ridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalarni berish, hisobotlarni qabul qilish va boshqa sohadagi davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonlarida “yagona darcha” tamoyili joriy etilyapti. Investitsiya jozibadorligini keskin oshirish maqsadida davlat organi nazorati ostida yer qa’ridan foydalanish ruxsatnomasini litsenziat tomonidan tasarruf qilish (sotish, garovga qo‘yish yoki boshqa shaxslarga o‘tkazish) mexanizmi joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, geologik axborotga bo‘lgan mulk huquqi, investorlar tomonidan uni almashish va realizatsiya qilish normalari takomillashtirilmoqda. Yer qa’ridan foydalanish shart-sharoitlari bo‘yicha ba’zi foydali qazilmalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uglevodorodlar yo‘nalishi keskin kuchaytirilib, xalqaro amaliyotdagi zamonaviy normalar bilan batafsil to‘ldirilmoqda.

Hujjat loyihasining qabul qilinishi yer osti boyliklarini mas’uliyat bilan geologik jihatdan o‘rganish, ulardan foydalanish hamda muhofaza etishni zamonaviy standartlar asosida samarali va tizimli yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi.

Mazkur qonun loyihasi tez orada Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisiga ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqish uchun kiritiladi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotiga ko‘ra 2024-yil birinchi yarim yilligi davomida imtiyozli ta’lim kreditlari uchun 328,4 mlrd. so‘m mablag‘ ajratildi.**

# YANGI O‘ZBEKISTONNING ZAFARLARI –

## MUSTAQIL TARAQQIYOT G‘OYASIGA HAMISHA SODIQ, MARD VA MATONATLI XALQIMIZNING BUYUK SALOHIYATI MAHSULI



1 Yurtimizda 1990-yil 20-iyunda **“Mustaqillik deklaratsiyasi”,** 1991-yil 31-avgustda **“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari haqida”gi Konstitutsiyaviy Qonun** O‘zbekiston parlamenti tomonidan qabul qilingan. Shu tariqa 1991-yili **1-sentabr – O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni**, deb e’lon qilindi.

Xalqimizning, buyuk ajdodlarimizning asrlar osha orzu qilib kelgan yorug‘ niyatlari amalga oshdi.

**Mustaqil O‘zbekiston** – insoniyat ruhining ulug‘vorligi va aql ziyosining ramzi, umumbashariy tafakkur beshiklaridan biri bo‘lmish serquyosh diyor.

**Mustaqil O‘zbekiston** – noyob madaniyat va yuksak ma’rifat, Sharq turmush falsafasi, insonparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan adabiyot va nafis san’atning azaliy va abadiy vatani.

**Mustaqil O‘zbekiston** – buyuk ko‘hna tarixi hozirgi zamon taraqqiyoti bilan o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan istiqboli porloq mamlakat. Uning ma’naviy, ma’rifiy va tarixiy salohiyati jahon hamjamiyatida tobora munosib o‘rin egallamoqda.

**Mustaqil O‘zbekiston** – Birinchi va Ikkinchi Renessans vatani, jahon sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk mutafakkir bobolarimizning kindik qoni tomgan muqaddas zamindir.

### Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!

**– Shu kunlarda joylarda “Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va targ‘ibot-tashviqot ishlari boshlab yuborildi. Bunday ishlarning natijadorligi haqida nima deysiz?**

– Savolingizga amaliy misollar bilan javob qaytarishga harakat qilaman. Gap shundaki, yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar samaralari tufayli mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzi sezilarli darajada yuksaldi.

E’tibor bering: xalqaro hamjamiyat bilan keng ko‘lamli hamkorlik hisobiga O‘zbekiston 2024-yilning o‘tgan davrida bir qancha muhim va salmoqli yutuqlarga erishdi.

***Birinchidan,*** 2024-yil 29-may kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohida bo‘lib o‘tgan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga a’zo davlatlarning 40-sessiyasida O‘zbekiston vakili 2025 – 2028-yillar uchun BMT Inson huquqlari qo‘mitasiga a’zo bo‘ldi. Shu orqali O‘zbekiston tarixda birinchi marta BMT Inson huquqlari qo‘mitasiga saylandi.

***Ikkinchidan,*** 2024-yil 4-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston tashabbusi asosida **“Markaziy Osiyo davlatlarining giyohvandlik bilan bog‘liq muammolarni samarali hal etish va bartaraf etish uchun yagona front bo‘lib harakat qilish va hamkorlik qilishga tayyorligi to‘g‘risida”gi rezolyutsiya**ni bir ovozdan qabul qildi.

Rezolyutsiyada Markaziy Osiyoda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mintaqadagi giyohvand moddalar savdosi va giyohvandlikka qarshi kurashish bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlangan. BMT rasmiy hujjatida O‘zbekistonning yangi siyosati natijasida mintaqada yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratilgan.

***Uchinchidan,*** 2024-yil 7-iyun kuni Shveysariyaning Jeneva shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro mehnat konferensiyasining 112-sessiyasida **O‘zbekiston ilk marotaba** Yevropa hududidan eng ko‘p ovoz to‘pladi va **Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) Ma’muriy kengashi a’zoligiga saylandi.**

Bu yutuq O‘zbekistonning global mehnat siyosatida, XMT tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarda, mehnat munosabatlari tizimini takomillashtirish yuzasidan yangi taklif va g‘oyalarning ishlab chiqilishida bevosita faol ishtirok etishiga qulay imkoniyat yaratadi.

***To‘rtinchidan,*** 2024-yil iyun oyida BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida O‘zbekiston va Xitoy tomonidan **“Xalqaro sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot kuni”**ni belgilash bo‘yicha taklif qilingan **rezolyutsiya** bir ovozdan ma’qullandi.

Ushbu rezolyutsiyada O‘zbekiston rahbariyatining umumiy xavfsizlik va farovonlikni ta’minlash uchun hamjihatlik ruhini rivojlantirish, amaliy hamkorlikka intilish, tinchlik va barqaror farovonlikka erishish yo‘lida xalqaro hamjamiyat sa’y-harakatlarini safarbar etishga qaratilgan g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.

***Beshinchidan,*** 2024-yil iyun oyida 2025 – 2027-yillar uchun BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi a’zoligiga o‘tkazilgan saylovda **O‘zbekiston** 185 mamlakat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, **EKOSOSga saylandi.** Mamlakatimiz o‘z tarixida ilk bor ushbu tuzilmaga a’zo bo‘ldi. Binobarin, BMT doirasida barqaror rivojlanishning barcha uch yo‘nalishi – iqtisodiy va ijtimoiy sohalar, shuningdek, atrof-muhitni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarda EKOSOS muhim o‘rin tutadi.

### Mustaqillik va inson huquqlari

**– Prezidentimizning mazkur qarorida, jumladan, yurtimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlari yetakchi o‘rinda turadigan ijtimoiy davlat va xalqparvar jamiyat qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlar, mehnatkash va bag‘rikeng xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan erishilayotgan ulkan natijalarning mazmun-mohiyati haqida so‘z boradi. Bu yutuqlarda Siz rahbarlik qilayotgan Milliy markazning o‘rni qanday?**

– Mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlar doirasida qonunchilik, huquq amaliyoti va xalqaro hamkorlik bo‘yicha izchil ishlar davom etmoqda. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning ta’sirchan vositalarini barpo etish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat organlari xodimlari va aholining inson huquqlari bo‘yicha madaniyatini oshirish borasida samarali islohotlar amalga oshirishda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan tizimli faoliyat yo‘lga qo‘yilgan.

Mamlakatimizning inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlari samarali bajarilishiga qaratilgan **Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi** qabul qilinganiga to‘rt yil to‘ldi. Ushbu dasturiy hujjatda belgilangan vazifalar izchillik bilan bajarilmoqda.

**Milliy strategiyani amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning jami 78 bandidan 67 bandi, ya’ni 85 foizi bo‘yicha ijro muddati yakunlandi.** Shundan:

- 6 ta band bo‘yicha ijro muddati uzaytirildi;
- 64 ta band bajarildi;
- 14 ta bandni amalga oshirish bo‘yicha ishlar davom etmoqda;
- “Yo‘l xaritasi”ning 11 ta bandi muddati hali yakunlanmagan.

Joriy yilning 1-yarmida Milliy strategiya doirasida 5 ta qonun, Prezidentning 6 ta Farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 6 ta qarori qabul qilindi. Jumladan, o‘tgan davrda:

**birinchidan,** “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi;

**ikkinchidan,** “Xalqaro mehnat tashkilotining ish haqini himoya qilish to‘g‘risidagi 95-konvensiyasini (Jeneva, 1949-yil 1-iyul) ratifikatsiya qilish haqida”gi;

**uchinchidan,** “Xalqaro mehnat tashkilotining ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to‘g‘risidagi 156-konvensiyasini (Jeneva, 1981-yil 23-iyun) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonunlar qabul qilindi.

### Parlament va inson huquqlari

**– Milliy markazning Oliy Majlis palatalari bilan o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatiga yana qanday amaliy misollar keltirish mumkin?**

– Bugungi kunda O‘zbekiston tomonidan BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari hamda boshqa mexanizmlarining tavsiyalari faol amalga oshirilmoqda. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekistonning milliy ma’ruzalarini tayyorlash va BMTning shartnomaviy qo‘mitalarida ko‘rib chiqish natijalarini deputatlar va senatorlar tomonidan muntazam eshitib borish, BMT shartnomaviy qo‘mitalari tavsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha Milliy harakatlar rejalarining Oliy Majlis palatalari tomonidan tasdiqlanishi amaliyoti takomillashmoqda.

Joriy yil 18-may kuni bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Senatining ellik ikkinchi yalpi majlisida Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining **“O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarga rioya qilinishining holati to‘g‘risidagi axboroti”** eshitildi. Axborotda 2023-yilda O‘zbekistonning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro shartnomalari bajarilishi hamda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiyaning ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlar qamrab olingan.

Oliy Majlis palatalari tomonidan tasdiqlangan inson huquqlari bo‘yicha 4 ta Milliy harakatlar rejasi ijrosi muntazam monitoring qilib borilmoqda. Bu boradagi axborotlar yil boshidan buyon har ikki chorakda Inson huquqlari sohasida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga rioya etilishi bo‘yicha parlament komissiyasiga taqdim qilinishi ta’minlandi.

**Birinchidan,** BMT Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini amalga oshirish bo‘yicha 2023 – 2025-yillarga mo‘ljallangan Milliy harakatlar rejasining jami 43 ta bandida belgilangan vazifalardan 22 ta bandi, ya’ni 50 foizi bo‘yicha ishlar bajarilgan. Shundan 16 ta band doirasidagi ishlar davom etayotgan bo‘lsa, yana 5 ta bandni bajarish muddati hali kelmagan.

**Ikkinchidan,** BMT Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish bo‘yicha qo‘mitasining yakuniy tavsiyalarini amalga oshirish yuzasidan Milliy harakatlar rejasi ijrosi doirasida 69 ta banddan 29 tasi bajarildi. Bu mazkur Milliy harakatlar rejasining 40 foizi bajarildi, deganidir. Qolgan 40 ta band ijrosi doirasidagi ishlar davom etmoqda.

**Uchinchidan,** BMT Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mitasining yakuniy tavsiyalarini amalga oshirish yuzasidan 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Milliy harakatlar rejasi ijrosi bo‘yicha 34 ta bandida ko‘rsatilgan tavsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan 126 ta vazifadan 49 tasi bo‘yicha ishlar to‘liq bajarildi. Ayni vaqtda 77 ta vazifani amalga oshirish bo‘yicha jadal ish olib borilmoqda. Demak, ushbu Milliy harakatlar rejasi bo‘yicha 60 foiz ishlar oldimizda turibdi.

**To‘rtinchidan,** BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha 2023 – 2025-yillarga mo‘ljallangan Milliy harakatlar rejasi jami 100 ta banddan iborat. O‘tgan davrda mazkur Milliy harakatlar rejasi bo‘yicha ishlarning 5 foizi bajarildi. Milliy harakatlar rejasidagi topshiriqlarning 30 foizi yaqin orada ijro etiladi. Rejada belgilangan 65 foiz ishlarni bajarish muddatlari hali kelmagan.

### Inson huquqlari va xalqaro hamkorlik

**– Milliy markaz tomonidan BMT bilan hamkorlik doirasida, xususan, Universal davriy hisobot bo‘yicha yil boshidan buyon qanday amaliy ishlar bajarildi?**

– Avvalambor, 2024-yil 22-mart kuni Jeneva shahrida BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 55-sessiyasi doirasida Universal davriy hisobot bo‘yicha O‘zbekistonning to‘rtinchi milliy hisoboti tasdiqlanganiga e’tibor qaratish o‘rinlidir. Mamlakatimiz Universal davriy hisobot tavsiyalarini muntazam bajarib kelmoqda.

O‘zbekiston milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarga moslashtirish yuzasidan o‘z majburiyatlarida sobitqadamdir. Bunda BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasining Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy vakolatxonasi va “UPR INFO” (Universal davriy hisobot – INFO) xalqaro nodavlat tashkiloti bilan hamkorligimiz alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, o‘tgan davrda o‘zaro



hamkorlikda BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi Universal davriy hisoboti bo‘yicha O‘zbekistonning 4-milliy ma’ruzasiga oid tavsiyalar yuzasidan 3 ta tadbir va 1 ta brifing tashkil etildi. Hozirgi vaqtda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan birga ushbu tavsiyalar bo‘yicha Milliy harakatlar rejasi loyihasi ishlab chiqilmoqda.

### Inson huquqlari va kuchli ijtimoiy siyosat

**– Joriy yilning o‘tgan davrida Milliy markaz inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish holatini o‘rganish, tahlil etish va umumlashtirish, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarning tavsiyalari bajarilishi yuzasidan qanday monitoring ishlarini amalga oshirdi?**

– Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni qonunchilikka va huquqiy amaliyotga implementatsiya qilish doirasida qabul qilingan qonunlarning mamlakatimiz hududlaridagi ijrosi monitoringdan o‘tkazildi. Bu borada bir qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgani aniqlangan bo‘lib, ayni yo‘nalishdagi ayrim tafsilotlar haqida quyida so‘z boradi.

**Birinchidan,** BMT Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi qoidalarining bajarilishi ustidan monitoring o‘tkazish maqsadida Milliy markaz, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi, “Madad” nodavlat notijorat tashkiloti, O‘zbekiston Nogironlar jamiyati, Nogironlar assotsiatsiyasi vakillaridan iborat ishchi guruh tuzildi.

Reja asosida 2024-yil 15-16-may kunlari “Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun to‘siqsiz muhitni yaratish holati” yuzasidan monitoring o‘tkazilib, Qarshi shahridagi xalqaro temir yo‘l vokzali hamda avtobuslar va avtobus bekatlari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yaratilgan qulayliklar o‘rganildi.

Monitoring yakunlari bo‘yicha ma’lumot va qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflar Oliy Majlis palatalari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Nogironligi bo‘lgan shaxslar ishlari bo‘yicha idoralararo kengash, Transport vazirligi hamda Qashqadaryo viloyati hokimligiga taqdim etildi.

**Ikkinchidan,** 2024-yil 1-yarmida jazoni ijro etish muassasalarida sud hukmi bilan tayinlangan jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlarga, tergov hibsxonalari hamda maxsus qabulxonalarda saqlanayotgan shaxslarga yaratilgan shart-sharoitlar va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan inson huquqlariga rioya etilishi yuzasidan monitoring tashriflari amalga oshirildi.

Shu maqsadda Milliy markaz tomonidan, avvalo, Sog‘liqni saqlash hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, “Barqaror rivojlanish” markazi, “Madad” nodavlat notijorat tashkiloti vakillaridan iborat monitoring guruhi shakllantirildi.

Monitoring tadbirlari Jizzax, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida joylashgan jazoni ijro etish muassasalari, tergov hibsxonalari, vaqtincha saqlash hibsxonalari va ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni saqlash muassasalarida o‘tkazildi. Bu jarayonda jami 21 ta jazoni ijro etish muassasasida inson huquqlarini ta’minlash bo‘yicha faoliyat amaliyoti o‘rganildi.

Bundan tashqari, tergov hibsxonalarida saqlanayotgan ishi sudda ko‘rilayotgan, dastlabki tergov davrida ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olingan ayollar va voyaga yetmagan shaxslar bilan alohida hamda birma-bir uchrashuv va suhbatlar uyushtirildi. Ishchi guruh a’zolari tomonidan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual qonunchiligi talablari doirasida huquqiy tushuntirishlar berildi.

Monitoring yakunlariga ko‘ra Jizzax viloyati sudi, Jizzax viloyati prokuraturasi hamda Ichki ishlar vazirligi Tergov departamentiga tavsiya xatlari kiritildi.

**– O‘tgan davrda inson huquqlarini ta’minlash, qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan yana qanday muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi?**

– Milliy markazga kelib tushgan 712 ta murojaat ko‘rib chiqildi, 350 nafardan ortiq fuqarolar qabul qilindi. Telefon orqali murojaat qilgan 1 ming 650 nafardan ortiq fuqarolarga huquqiy maslahatlar berildi.

O‘tgan davrda jami 40 ta normativ-huquqiy hujjat ekspertizaga tortildi. Shuningdek, Milliy markaz tomonidan 50 dan ortiq o‘quv, axborot-ma’rifiy va ma’naviy-huquqiy tadbirlar o‘tkazildi. Mazkur tadbirlarda davlat organlari va tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va nodavlat notijorat tashkilotlaridan jami 1 ming 400 ga yaqin vakil ishtirok etdi.

Toshkent viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida milliy va xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda “Qiynoqqa solishga qarshi kurashish: xalqaro amaliyot va milliy tajriba” mavzuida o‘quv kurslari tashkil etildi.

Milliy markaz xodimlari xalqaro hamkorlar hamda vazirlik, idora va tashkilotlar o‘tkazgan 10 ta konferensiya va 10 ta davra suhbatida ham faol ishtirok etdi.

**Inson huquqlari bo‘yicha IV Samarqand forumi o‘tkazildi. Forum “Ekologik muammolar: o‘zgaruvchan dunyoda inson huquqlari kelajagi va barqaror yechimlar topish” mavzuiga bag‘ishlandi.**

Inson huquqlari bo‘yicha axborot-kutubxona markazi – **“Inson huquqlari uyi”** faoliyati takomillashtirildi. Joylardagi axborot-kutubxona markazlari va oliy o‘quv yurtlarining axborot-resurs markazlariga 83 nomdagi 450 ta huquqiy adabiyot beg‘araz taqdim etildi.

Hisobot davrida 14 ta risola, inson huquqlari bo‘yicha 1 ta xalqaro hujjatlar to‘plami nashrga tayyorlandi. Inson huquqlari madaniyatini oshirishga qaratilgan 2 ta respublika tanloviga start berildi.

Muxtasar aytganda, yurtimiz hayotining barcha jabhalari qatori inson huquqlariga taalluqli qamrovdor yangilanishlar ham, bir tomondan, yurtdoshlarimizning to‘kis va baxt-saodatli yashashini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, inson huquqlari sohasidagi majburiyatlariga qat’iy sodiq bo‘lgan O‘zbekistonning xalqaro obro‘-e’tiborini yuksaltirishga bevosita xizmat qiladi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, **“Aynan mustaqillik tufayli mamlakatimiz suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatga, xalqaro huquqning to‘laqonli subyektiga aylandi. Dunyo bizni yangitdan tanidi va tan oldi. Yer yuzidagi turli davlatlar va xalqlar bilan do‘stlik hamda hamkorlik aloqalarimiz tobora kengayib, yurtimizning xalqaro maydondagi mavqei va nufuzi ortib bormoqda”.**

**“Xalq so‘zi”.**

**Sirdaryo IESda joriy yil boshidan hozirga qadar “yashil” stansiya orqali 1,39 mln. kVt/soat elektr energiya iqtisod qilindi.**

Vatanimiz mustaqilligining 33 yilligi oldidan

# KUCH-QUDRATIMIZ BIRLIKDA, HAMJIHATLIKDA

## BUNING ISBOTI YANGI HAYOT, YANGI JAMIYAT QURISH YO‘LIDA QO‘LGA KIRITAYOTGAN YUTUQLARIMIZ MISOLIDA YAQQOL NAMOYON BO‘LMOQDA.

*Yurt ozodligi – muqaddas tuyg‘u. Buni chuqur anglagan ko‘p millatli xalqimiz o‘tgan yillar mobaynida mustaqil taraqqiyot g‘oyasiga sodiqlik ko‘rsatib kelmoqda. Va hech shubhasiz, istiqlol yillarida erishilgan yuksak marralar zamirida mard va matonatli xalqimizning fidokorona mehnati, aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyati turadi. Ana shunday oliyjanob elning farzandlari yangi O‘zbekistonni barpo etishdek buyuk maqsad yo‘lida yanada jipslashgani keyingi yillarda erishilayotgan yutuq va marralarda namoyon bo‘lmoqda.*



Bugungi murakkab zamonda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan dadil qadam tashlayotgan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida dunyo bizni yangidan tanidi va tan oldi. Yer yuzidagi turli davlatlar va xalqlar, ayniqsa, qo‘shnilarimiz bilan do‘stlik hamda hamkorlik aloqalarimiz tobora kengayib, yurtimizning xalqaro maydondagi mavqei va nufuzi ortib bormoqda. Bu mamlakatimiz ichki siyosatida kuzatilayotgan ochiqlik va yangilanishlar uning tashqi siyosatida ham yaqqol namoyon bo‘layotgani natijasi, desak, aslo yanglishmaymiz.

Qayd etish joizki, hozirgi vaqtda yurtimiz inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasida mislsiz yutuqlarga erishdi. Ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalar – aholining hayot darajasi va sifatini yaxshilash, tadbirkorlik va xususiy mulk rivojiga keng imkoniyat ochib berish, yoshlar, xotin-qizlar, keksa avlod vakillari, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga qaratilgan dasturlarning ijobiy natijalari xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e’tirof etilmoqda.

Xalqimiz eng ulug‘, eng aziz ayyom – Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz uch yilligini ulkan yutuqlar, yangi g‘oya va rejalar bilan kutib olmoqda. Ahamiyatlisi, barcha bunyodkorlik ishlari o‘zaro uyg‘unlikda, davlatimiz ravnaqi va xalqimiz turmushini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgani e’tiborga molik. Zero, mustaqillik yurtimizga, uning xalqiga o‘z taqdirini o‘zi hal qilish, milliy manfaatlaridan kelib chiqib, iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va izchil rivojlantirish, barcha imkoniyatini, birinchi navbatda, farovonlik yo‘lida ishlatish, hamkor mamlakatlar bilan tenglik va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillarida aloqalarni shakllantirishga keng yo‘l ochdi.

Shu ma’noda aytganda, bugungi kunning barqaror rivojlanish tamoyili – mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, orzu-intilishlarimiz asosi, porloq kelajagimiz poydevori, hech shubhasiz, iqtisodiy omillarga har jihatdan bog‘liq.

Joriy yilning 17-iyul kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash yuzasidan birinchi yarim yillikda amalga oshirilgan ishlar va kelgusi vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida eng dolzarb masalalar islohotida iqtisodiy barqarorlikka alohida e’tibor qaratildi. O‘tgan davrda qo‘lga kiritilgan yutuqlar, erishilgan muvaffaqiyatlar tahlil qilinar ekan, bularning barchasi kelgusidagi izchil faoliyatimiz uchun asos bo‘lishi zarurligi ta’kidlandi.

Tahlillar ko‘rsatishicha, 2024-yilning birinchi olti oyida yalpi ichki mahsulot 6,4 foiz ko‘paygan, sanoat – 7,8 foiz, qurilish – 10,1 foiz, xizmatlar – 12,9 foiz, qishloq xo‘jaligi 3,8 foiz o‘sgan. Budjet daromadlari ham 113 trillion so‘mga yetib, 14 foiz o‘sgani qayd etilgan. Yil boshidan buyon respublikada yaratilgan qo‘shilgan qiymat 567,4 trillion so‘mga yetgan. Bu o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 94 trillion so‘mga ko‘p ekani kuzatilayotir.

Keyingi yillarda qonunchilikni takomillashtirish va qulay investitsiya muhitini yaratish bo‘yicha ko‘rilayotgan muhim chora-tadbirlar natijasida xorijlik sarmoyadorlarning O‘zbekistonga qiziqishi, intilishi ortdi. O‘tgan olti oy mobaynida jami kapital qo‘yilmalar 229 trln. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, shundan 15,5 mlrd. dollari xorijiy investitsiya ekani fikrimizni isbotlaydi. Shundan 14 mlrd. dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritilgani, o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 2,1 barobar o‘sgani, ayniqsa, e’tiborlidir.

Tahlillarga qaraydigan bo‘lsak, uch yilda kiritilgan har bir dollar investitsiya o‘rtacha uch dollar qiymat yaratgan. Yoki har 1 ming dollar xorijiy investitsiya soliq tushumini o‘rtacha 600 dollarga oshirgan. Shuningdek, joriy yilda sanoat zonalari infratuzilmasi uchun 1,5 trln. so‘m ajratilgan. Olti oyda mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarish 34 foiz o‘sgan. Tarmoq va hududlar yil boshidan 8,7 mlrd. dollarlik mahsulotini chetga sotgan.

Aholi farovonligi, avvalo, mamlakatdagi xususiy mulkchilik sohasidagi munosabatlarning ishonchli himoyasiga hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish tizimi qanday yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liq. Binobarin, amaliyotda aholining farovonligi ularning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanish holatiga qarab baholanadi. Aholi farovonligini erishishning eng muhim omillaridan biri, bu – fuqarolar bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, inson kapitaliga jiddiy e’tibor qaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish. Shu sababli bozor munosabatlarini yanada erkinlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida kelgusi besh yillikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan maqsadlar Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan. Yil boshidan 3,5 mlrd. dollarlik 3 mingta loyiha ishga tushirilib, 76 mingta yuqori daromadli doimiy ish o‘rni yaratilgani, tadbirkorlik uchun 82 trln. so‘m kredit va 15,5 trln. so‘m subsidiya berilib, 600 ming aholi biznesga jalb qilingani, yengillik va imtiyozlar tufayli tadbirkorlarda 56,3 trln. so‘m mablag‘ qolgani bugungi kunda ushbu rejalarning shiddat bilan amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichlar hayot farovonligini ta’minlash borasidagi faoliyatning raqamlarda aks etgan ayrim ko‘rinishlari, xolos.

Hozirgi tahlikali dunyoda kambag‘allikni qisqartirish masalasi barcha davlat oldidagi eng muhim vazifalardan biri. O‘zbekiston bu muammoga ilg‘or tajriba va yangi yondashuvlar asosida yechim topdi, deyishimizga to‘la asoslar bor. Davlatimiz rahbari g‘oyasi va bevosita nazorati tufayli amaliy choralar hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish maqsadida boshlagan ulkan islohotlar o‘z samarasini bermoqda. Buning yaqqol misoli sifatida o‘tgan bir yilda mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 17 foizdan 14 foizga pasayib, 1 million fuqaro kambag‘allikdan chiqarilganini alohida ta’kidlash lozim.

Aniq raqamlarga murojaat qilsak. Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G‘ijduvon tajribalari natijasida birgina shu yilning olti oyida 4 mingdan ortiq mahallalar sanoat va qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashtirilib, 1 mln. 600 ming aholining rasmiy bandligi ta’minlangan.

Prezidentimiz tomonidan ushbu yo‘nalishda yangi tashabbus va g‘oyalar asosida qo‘shimcha choralar belgilangani bu borada yanada yuqori ko‘rsatkichlarga erishishimizga poydevor bo‘lishi, shubhasiz. Xususan, endi tuman hokimi, bank rahbari va mahalla raisi bir bo‘lib ishlash bo‘yicha uch tomonlama shartnoma tuzadi. Joriy yil 1-dekabrgacha Sayxunobod tajribasi asosida xonadonlar uchun moliyaviy paket qilib beriladi. Bu orqali 495 ming aholining bandligi ta’minlanadi. Ikkinchi yarim yillikda “Oilaviy tadbirkorlik” dasturi qamrovi 1,5 barobar oshirilib, 4 trln. so‘m ajratiladi.

Amaliyotda o‘zini oqlagan Uychi tajribasiga asosan esa endi tuman hokimi va bank rahbarlari tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning biznesini kengaytirishga ko‘maklashadi. Bunda hokim yer, elektr, suv, yo‘l va boshqa infratuzilma masalasini, bank esa mablag‘ni hal qiladi. Bu orqali yil yakunigacha 670 ming aholi bandligini ta’minlashga erishiladi.

G‘ijduvon tajribasi asosida yil yakuniga qadar mingta mahallaning o‘zida ko‘p qavatli sanoat binolari tashkil qilinishi belgilangani tadbirkorlar uchun zo‘r imkoniyatlar eshigini ochdi. Sanoat binolariga xonadonlardagi ishlab chiqarishlar ko‘chiriladi. Ushbu binolarning yuqori qavatlarida ishlaydigan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari beriladi. Bu 140 ming ish o‘rnini “soyadan” chiqarishga sharoit yaratadi.

Zarbdor tajribasi asosida esa tumanlarda sanoat, savdo, xizmat va zamonaviy agrotexnologiyalar sohalarida drayver loyihalar qilinadi. Ularni amalga oshirishga bu yil qo‘shimcha 500 mlrd. so‘m ajratiladi. Bu orqali yana 150 ming ish o‘rni ochiladi.

Ushbu islohotlar, avvalo, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishning drayveri bo‘lgan xususiy sektor va tadbirkorlik uchun eng qulay sharoitlarni yaratib berish, ularni izchil qo‘llab-quvvatlash davlatimizning doimiy e’tibori markazida bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Qolaversa, mazkur sa’y-harakatlar kambag‘allikni qisqartirish borasida boshlagan keng ko‘lamli ishlarni yangi bosqichga olib chiqib, bundan buyon ham barcha yo‘nalishda “inson – jamiyat – davlat” tamoyili asosida islohotlarni qat’iy davom ettiradi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda xalqchil iqtisodiyot siyosati olib borilmoqda. Bu videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbarining ko‘rsatma va topshiriqlarida yana bir karra o‘z tasdig‘ini topdi. Yig‘ilishda Prezident mutasaddi rahbarlarni ikkinchi yarim yillik uchun tushum so‘zsiz ta’minlanishi shartligi haqida ogohlantirar ekan, tuman hokimlari va soliqchilar rejani bajaraman, deb tadbirkorni ortiqcha to‘lov qilishga majburlayotgani bo‘yicha holatlar kuzatilayotganini qayd etdi. Ushbu vaziyatni tanqid qilib, Prezident ishlab chiqarish va daromad oshishiga qiynalgan tadbirkorga ko‘mak berish orqaligina natijaga erishish mumkinligini ko‘rsatib o‘tdi. Shuningdek, tadbirkorga ortiqcha to‘lov qildirgan mas’ullar jazolanishi haqida barcha hokim va soliqchilar qat’iy ogohlantirildi. Bosh prokuraturaga bu masalani alohida nazoratga olish topshirildi.

Xolis aytadigan bo‘lsak, mamlakatimiz tarixida ilgari bunday raqamlar, g‘oya va tashabbuslar amaliyotda kuzatilmagan. Vaholanki, bunday iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun imkoniyat va salohiyatlar bo‘lgan. Yanada aniqroq ifodalasak, iqtisodiyotdagi mavjud imkoniyatlar uzoq yillar davomida boy berib kelinayotgan edi. O‘tgan yetti yil mobaynida iqtisodiy islohotlarning xalqchilligi ta’minlanib, bugun o‘z natijadorligini amaliyotda ko‘rsatmoqda.

To‘g‘ri, bunga oson erishilmayapti. Uning zamirida, avvalo, davlatimiz rahbarining qat’iyati, vatanparvar siyosati, to‘g‘ri tanlangan strategiyadan borilayotgani, “Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!” degan ezgu shior ostida birlashib, undan ilhomlanayotgan xalqimizning fidokorona mehnati, qolaversa, davlat boshqaruvi organlarining bir-birini tushungan holda harakat qilishi, maqsad va vazifalar aniq belgilanayotgani turibdi. Zero, tarix – o‘tmishni o‘rganib, xulosa chiqarishga undaydi.

“Avval inson, so‘ng jamiyat va davlat” tamoyili asosidagi izchil islohotlarning hayotimizda to‘liq aks etishi, xalqimiz uchun obod va farovon turmush yaratish yo‘lida davom ettirilayotgan islohotlarning natijadorligi, avvalo, har birimizning vatanparvarligimiz, mas’uliyatni his qilishimiz va birdamligimizga bog‘liq. Bu yo‘lda esa Mustaqillik g‘oyasi, Istiqlol ruhi bizga doimo tog‘dek tayanchdir.

**Abror KO‘CHAROV,**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori.**

Biz va jahon





## SINGAPURDAGI MASHHUR JURNALNING MAXSUS SONI O‘ZBEKISTONGA BAG‘ISHLANDI

*Singapurning ommabop nashri – “Asian Geographic Magazines” jurnalining bosh muharriri va “ADEX” mahalliy dayving markazi rahbari Kyau Tetning O‘zbekistonga amalga oshirgan ijodiy safariga bag‘ishlangan maxsus soni chop qilindi.*





Qayd etilishicha, O‘zbekistonga sayohat Kyau Tet uchun haqiqiy kashfiyot bo‘lib, bu qadimiy zaminning noyob merosi bilan yaqindan tanishish imkonini bergan. Samarqandning mahobatli minoralaridan tortib Buxoroning sokin ko‘chalarigacha, Toshkentning rang-barang bozorlaridan to Qizilqumning sirli sahrolarigacha – u tashrif buyurgan har bir go‘shaning betakror muhiti va salobatidan lol qolganini ta’kidlagan.

Safardan qaytgach, singapurlik sayohatchi-jurnalist o‘zi rahbarlik qilayotgan jurnal o‘quvchilari bilan O‘zbekistonga unutilmas sayohati taassurotlari haqida o‘rtoqlashishga qaror qildi.

1999-yilda tashkil etilganidan beri “Asian Geographic Magazines” jurnali o‘zining tahliliy maqolalari, qiziqarli fotoreportajlari va yuqori sifatli dizayni bilan mushtariylar e’tiborini qozonib kelmoqda. Ikki oyda bir marta nashr etiladigan jurnal 44 mamlakatda 300 mingdan ortiq o‘quvchilarga ega.

Jurnal ko‘pincha Osiyo haqidagi turli, ba’zan juda kam o‘rganilgan mavzularga bag‘ishlangan materiallarni e’lon qiladi. Bu esa o‘quvchilarga qit’a haqida to‘liqroq tushunchaga ega bo‘lish imkonini beradi. Nashr mintaqadagi muhim masalalarga e’tibor qaratish maqsadida nafaqat dolzarb voqea va muammolarni yoritib boradi, balki uning tarixi hamda madaniyatini ham keng targ‘ib qiladi.

Shunday qilib Kyau Tetning O‘zbekistonga safari asosida tayyorlangan maqolalar jurnal o‘quvchilarining mamlakatimiz, uning ajoyib madaniy va tabiiy merosi haqidagi bilimlarini boyitishga xizmat qildi. Muallif ta’kidlaganidek, O‘zbekistonga sayohat nafaqat uning taassurotini boyitdi, balki jurnal missiyasi – Osiyoning rang-barangligini namoyish etish va uning o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratishga qo‘shilgan muhim hissa bo‘ldi.

“O‘zbekiston o‘zining mahobatli me’moriy obidalari, go‘zal manzaralari, mehmondo‘st xalqi bilan barchada unutilmas taassurot qoldiradi”, deya qayd etgan “Asian Geographic Magazines” bosh muharriri.

**“Dunyo” AA.**
Singapur

# DUNYO
## HAFTA ICHIDA

### Mahbuslar almashinuviga doir tarixiy kelishuv

*1-avgust kuni Rossiya va AQSh o‘rtasida mahbuslar almashinuvi bo‘lib o‘tdi.*

*Operatsiya doirasida amerikalik jurnalistlar Evan Gershkovich va Alsu Kurmasheva, sobiq harbiy Pol Vilan hamda davlatga xiyonat qilishda ayblangan Vladimir Kara-Murza ham o‘z oilalari bag‘riga qaytarildi.*

Ya’ni Vashington Rossiya qamoqlaridan jami 16 kishining ozod etilishiga erishgan. Ulardan yetti nafari Germaniya, besh nafari esa siyosiy mahkum sifatida qamalgan Rossiya fuqarolaridir.

AQSh Prezidenti J. Bayden Rossiya bilan og‘ir kechgan muzokaralarda ko‘makchi va vositachi bo‘lgan davlatlarga, jumladan, Turkiya hukumatiga minnatdorlik bildirdi. Almashinuv shartlariga ko‘ra, AQSh, Germaniya, Polsha, Norvegiya va Sloveniya qamoqlaridagi jami sakkiz nafar Rossiya fuqarolari vataniga qaytarilmoqda. Ushbu kelishuv “sovuq urush” davridan keyin AQSh va Rossiya o‘rtasida erishilgan eng yirik mahbuslar almashinuvi ekani ta’kidlanmoqda.

### Janubiy Yevropa o‘rmon yong‘inlari iskanjasida

*Janubiy Yevropa jazirama tufayli yuzaga kelgan o‘rmon yong‘inlari bilan kurashmoqda. Xususan, Serbiya 20 kundan ortiq nazoratdan chiqib ketgan yong‘inlar bilan kurashayotgan Shimoliy Makedoniyaga vertolyotlar yubordi. Qo‘shni Albaniyada esa kuchli shamol yong‘in tarqalishini tezlashtirib, ko‘plab aholini ko‘chishga majbur qilgan. Xorvatiyada 122 ta yong‘in o‘chog‘ini o‘chirishga 755 nafar o‘t o‘chiruvchi va 10 ta samolyot jalb etilgan.*

Yevropaning boshqa hududlarida ham kuchli jazirama davom etyapti. Masalan, Ispaniyaning to‘qqizta munitsipaliteti yuqori haroratdan ogohlantiruvchi to‘q sariq belgi ostida.

Mutaxassislar Yevropada ko‘proq iqlim ofatlarining oldini olish uchun harakat qilish vaqti kelganini ta’kidlab, mutasaddilarni qit’a ob-havosidagi xavotirli tendensiyalarga e’tibor berishga chaqirmoqda.

### Qirg‘izistonda vebkam sohasi jinoiylashtirildi

*Prezident Sadir Japarov vebkam (pornografiya) faoliyati uchun jinoiy javobgarlikni ko‘zda tutuvchi tuzatishlarni ma’qulladi.*

Bu haqda davlat rahbari matbuot xizmati xabar berdi.

Endilikda veb-studiyalar vositasida jonli efirda fohishalik va buzuqlik faoliyatini tashkil etish, ko‘maklashish hamda shug‘ullanish uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Tegishli o‘zgartirishlar Jinoyat kodeksi hamda Ma’muriy huquqbuzarliklar kodeksiga kiritildi.

Qirg‘iziston parlamenti ushbu tuzatishlarni iyun oyida qabul qilgan edi. Qonun loyihasi muhokamasi vaqtida veb-studiyalarda jonli efir orqali fohishalikni tashkil etish va unga ko‘maklashish taxminan 1200 AQSh dollaridan 1400 AQSh dollarigacha jarima yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ma’lum qilingandi. Vebkamda model sifatida ishtirok etish 10 ming som (taxminan 120 AQSh dollari) miqdorida jarima bilan jazolanadi.

### Turkiya Dushanbeda viza markazini ochdi

*Turkiyaning Dushanbedagi elchixonasi viza markazini ishga tushirdi. 5-avgustdan qabulni boshlaydigan markazda bir turistik viza narxi 180 dollar bo‘lishi kutilmoqda.*

Turkiya elchixonasi vakilining so‘zlariga ko‘ra viza markazida turistik, ishchi, o‘quv va ishbilarmonlik vizalari beriladi. Turkiya Tojikiston fuqarolari uchun vizani 2024-yil aprel oyida hech qanday izohsiz joriy qilgandi.

Ta’kidlash joizki, Turkiya Tojikistonga sarmoya kiritgan davlatlar orasida 14-o‘rinni egallab turibdi. Ikki davlat o‘rtasidagi yillik tovar ayirboshlash hajmi yaqin vaqtgacha 363 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunda viza rejimi joriy qilinishi tufayli birmuncha pasaygan.

**Abduvali SOYIBNAZAROV**
**(“Xalq so‘zi”) tayyorladi.**

UNESCO shafeligida 25 – 30-avgust kunlari qadimiy va betakror Samarqandda “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivali bo‘lib o‘tadi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-742. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.00 Topshirildi — 00.05 1 2 3 4 5 6